



КАЗАХСТАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНУНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЯ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»
MAVZUSIDAGI II XALQARO
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rghanish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,

Y.Shirinova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



3. Husanboyeva Q. Adabiyot o'qitish metodikasi va muammoli ta'lif. O'quv-metodik qo'llanma. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022. – 352 b.
4. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2018. – 352 b.
5. Muhammedova S. X., Abdullayeva M. D., Yuldasheva Sh. Sh., Eshmatova Y. B. O'zbek tili va adabiyoti ta'lifimda zamonaviy axborot texnologiyalari. – Toshkent: Excellent Polygraphy, 2018. – 264 b.
6. Neil Selwyn. Education and Technology: Key Issues and Debates. – Continuum. New York, 2011.
7. Niyozmetova R. Uzluksiz ta'lif tizimida o'zbek adabiyotini o'rganish metodikasi. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2007. – 216 b.
8. Rajabova I. Adabiyot darslarini interfaol usullarda tashkil etish. – Toshkent: Tamaddun, 2010. – 172 b.
9. Seligman, M. E. P. (2002). Positive Psychology, Positive Prevention, and Positive Therapy. In Handbook of Positive Psychology. Oxford University Press.
10. Slavin, R. E. (2009). Educational Psychology: Theory and Practice. Pearson.
11. To'xliyev B., Niyozmetova R. va b. Til va adabiyot ta'liming zamonaviy texnologiyalari. – Toshkent, 2011. – 191 b.
12. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: "Alisher Navoiy" nomidagi O'zMK, 2012. – 308 b.

O'QITUVCHINING "SEHRLI TAYOQCHASI": FAOLLIKNI OSHIRUVCHI METODLAR TAHLILI

Abduraxmanova Ilmira Alimjonovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent o'zbek tili va adabiyoti universiteti 1-kurs magistri
almjonovailmira@gmail.com

Annotasiya. Ushbu maqolada metodikaning zamonaviy ta'limdagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. O'quvchilarining faolligini oshirishga xizmat qiluvchi samarali metodlar tahlil qilinadi. Olimlarning bu boradagi tadqiqotlariga tayanilgan holda, ayniqsa adabiyot darslarida qo'llanilayotgan, amaliy natija berayotgan yondashuvlar — "alifbo metodi" va "mozayka metodi" kabi usullar chuqur tahlil etiladi. Bu metodlar o'quvchilarda mustaqil fikrplash, ijodiy yondashuv va muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: metodika, pedagogika, mustaqil fikr, samaradorlik, yangicha yondashuv, alifbo metodi, mozaika metodi.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение методики преподавания в современном образовательном процессе. Основное внимание уделяется эффективным методам, способствующим повышению активности учащихся. На основе научных исследований анализируются практические методики, особенно применяемые на уроках литературы, такие как «метод алфавита» и «метод мозаики». Эти подходы способствуют развитию самостоятельного мышления, креативности и коммуникативных навыков у школьников.

Ключевые слова: методика, педагогика, самостоятельное мышление, эффективность, инновационные подходы, метод алфавита, метод мозаики.

Abstrakt. This article discusses the importance of teaching methodology in the context of modern education. It focuses on effective strategies aimed at increasing student engagement and participation. Drawing on academic research, the article analyzes practical



methods used in literature classes, such as the “Alphabet Method” and the “Mosaic Method.” These approaches help foster students’ independent thinking, creativity, and communication skills.

Keywords: methodology, pedagogy, independent thinking, effectiveness, innovative approaches, alphabet method, mosaic method.

Zamonaviy ta'lrim tizimi rivojlanishining asosiy bosqichi — o'quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok ettirish va ularning bilimlarni ongli, tizimli hamda mustahkam o'zlashtirishlariga erishishdan iboratdir. Hozirgi kunda o'quvchilarni shunchaki bilim egasiga aylantirish emas, balki ularni mustaqil fikrlaydigan, tahlil qiladigan, ijodiy qarorlar chiqara oladigan shaxs sifatida shakllantirish pedagogik maqsadlarga aylangan. Shu nuqtai nazardan qaralganda, o'quvchilarning o'quv jarayonidagi faolligini oshirish, ular ishtirokinini yanada kuchaytirishga rag'batlantirish, ta'lrim mazmunini samarali yetkazish metodikalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Professor Q. Yo'ldoshning ta'kidlashicha: “Zamonaviy pedagogikaning diqqat markazida — tarbiyalanuvchi shaxsni har tomonlama kamol toptirish, o'ziga xos fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, mas'uliyatni zimmasiga olishdan cho'chimaydigan ijodkor insonni shakllantirish masalasi turibdi.” Bu fikr asosida pedagoglar fidokorona mehnat qilsa, ta'lrim sifati, shubhasiz, oshadi.

Metodikaning muhimligi va zamonaviy ta'limgagini o'rni qanday? Metodika — bu ta'lim jarayonining markaziy qismlaridan biri. O'qituvchi bilim egasi bo'lishi bilan birga, uni o'rgatishning samarali usullarini bilmog'i, pedagogik vositalarni vaziyatga qarab to'g'ri tanlay olmog'i zarur.

Ustoz Nazokat Yusufjonovaning ta'biri bilan aytganda, metodika — bu o'qituvchi uchun “sehrli tayoqcha”, ya'ni darsdagi harakat, tartib, samaradorlik va natijadorlik garovidir. Zamonaviy pedagogika darslarni o'quv markazida tashkil etishni talab qiladi. Bunda o'quvchi — markaz, o'qituvchi esa yo'naltiruvchi, motivator va tashkilotchi rolini bajaradi.

Adabiyot fanida metodlardan samarali foydalanish juda zarur va muhim amaliyat hisoblanadi. Adabiyot fani o'quvchining ma'naviy-axloqiy kamolot, estetik didi va nutq madaniyatini shakllantirishda beba ho o'rin egallaydi. Shuningdek, badiiy matnlar orqali hayotiy voqelikni anglash, ijtimoiy ongni mustahkamlash va shaxsiy dunyoqarashni kengaytirish imkoniyati yaratiladi. Ammo XXI asrning raqamli avlodni ko'proq vizual, interaktiv va qisqa shakldagi taqdimotlarga o'rganib qolgan. Shuning uchun adabiy ta'limga an'anaviy bayon qilish usullaridan voz kechib, o'quvchilarni darsga jalg etuvchi, ularning faol ishtirokinini ta'minlovchi metodlardan foydalanish talab etiladi.

Amaliy darslarda qo'llanilayotgan metodlarning barchasi ham birdekkamarali bo'lavermaydi. Adabiy ta'limga bir qancha metodlardan foydalangan holda darslarga befarq, mustaqil fikrini bayon qila olmaydigan, telefon va gadjetlarga bog'lanib qolgan o'quvchilarni ham fanga qiziqtirib, fan orqali hayotiy ko'nikmalarni egallashi uchun zamin yaratish mumkin. Bunda amaliy



darslarda qo'llanib, natijaga erishgan samarali usullar va metodikalar haqida so'z yuritamiz.

O'qituvchi dars rejasini, vaqt taqsimotini aniq belgilab olishi, bajariladigan vazifalar tartibini puxta rejalashtirib olishi lozim. Kirish mashg'ulotlarida "Mnemonika", "Yozilgan bashoratlar", "Tashrif qog'ozi" metodlaridan foydalangan holda o'quvchi diqqatini jalb qilib olish mumkin. Uyga vazifani so'rash jarayonida "To'g'ri-noto'g'ri", "Kompozitsiya" metodlaridan foydalanish o'quvchiga ham, o'qituvchiga ham qulaylik yaratadi.

Fikrini mustaqil bildirishga qiynalayotgan, darslarda kam ishtirok etadigan o'quvchilar bilan "Alifbo" metodikasini qo'llash lozim. Bu metodikada sinfdagi o'quvchilar ikki guruhga bo'linadi. O'qituvchi raqamlangan rangli kartochkalarni o'quvchilarga tarqatadi va o'zi javob berishini istagan o'quvchini yashirin raqam asosida doskaga chiqaradi. Ya'ni o'sha tanlovdagi o'quvchiga yashil kartochka berilsa, u esa 6-raqam bilan kodlangan bo'lishi mumkin. O'qituvchi bu kodni bilgan holda qarama-qarshi jamoadagi "6" raqami belgilangan kartochka egasi bilan birga o'sha o'quvchini raqobatga kirishini ta'minlaydi. Harflar yashirilgan kartochkalar yaxshilab aralashtiriladi. Har bir o'quvchi o'tilgan mavzu yuzasidan ko'rsatilgan harf bilan boshlanuvchi gaplar tuzib chiqishi kerak bo'ladi. Bu jarayonda odatda fikr bildirmaydigan o'quvchi ham "raqib" jamaa a'zosidan orqada qolmaslik uchun harakat qiladi. Natijada, unda kreativlik, ma'lumotni eslab qolish, uni tushunarli yetkazib berish va o'z fikrini yangi mavzu g'oyalari bilan uyg'unlashtirgan holda aytib berish ko'nikmalari shakllanadi. Ishtirokchilar ko'rsatilgan harflar bilan boshlanuvchi gap tuzib ketolmasa, topshiriq yakunlanadi. G'alabaga erishgan o'quvchi rag'batlantiriladi. Natijada o'quvchilar keyingi darslarda ma'lumotlarga e'tiborli bo'lishga va asar g'oyasi bilan qiziqishga intiladilar. Bu esa amaliyotda o'z samarasini bergen metodlardan biridir. Shunday jarayonlarda o'qituvchining kreativligi, pozitivligi yuqori ahamiyat kasb etadi.

Yana shunday oddiy, lekin qiziqarli metodikalardan biri — "Mozaika" metodidir. Bu metod kichik badiiy asarlar tahlili vazifasini bajarishda o'qituvchi uchun qulaylik, o'quvchi uchun esa qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. U o'quvchining kuzatuvchanlik, tezkorlik, topqirlik qobiliyatlarini rivojlantiradi va tashabbuskorlik sifatlarini oshirishga xizmat qiladi. O'quvchilarni o'zaro muloqotda bo'lishga, bir-birining fikrini hurmat qilishga hamda yangi bilimlarni qo'llab-quvvatlashga o'rgatadi.

Metodik yondashuvlar orqali shakllanadigan kompetensiyalar

Metodik faoliyat natijasida o'quvchilarda quyidagi kompetensiyalar shakllanadi:

- Kognitiv kompetensiya: tahlil, taqqoslash, umumlashtirish qobiliyatları;
- Kommunikativ kompetensiya: fikrni aniq ifodalash, muloqotga kirishish;
- Ijtimoiy-emotsional kompetensiya: hamkorlik, murosaga kelish, boshqalarning fikrini hurmat qilish.

Ta'lim sifatini oshirish — bu nafaqat mazmunni yangilash, balki uni yetkazish vositalarini, ya'ni metodikani zamonga moslashtirishdir. O'qituvchi



qanday metodlardan foydalanishidan qat'i nazar, assosiy maqsad — o'quvchini o'ylashga, fikrlashga va faol ishtirok etishga undashdan iboratdir. Zamonaviy metodikalarning puxta o'zlashtirilishi va joyida qo'llanishi ta'lim samaradorligini oshiradi, shuningdek, jamiyatga intellektual salohiyati yuksak, fikr yurita oladigan, madaniyatli shaxslarni yetkazib berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Yusufjonova .Sizda qirq besh daqiqa bor: metodik qo'llanma.Toshkent : "Chashma" MCHJ,2024.-142 b.
2. Q. Husanboyeva, R. Niyozmetova **Adabiyot o'qitish metodikasi.** Nashr: Innovatsiya-Ziyo, 2022
3. Q.Husanboyeva Adabiy ta'lim metodikasi.Toshkent: "INNOVATSION ZIYO", 2024.-322 b.
4. Q.Yo'ldoshev "Jilovlanmagan Tafakkurmahsuli". Toshkent: "Tafakkur" nashriyoti, 2023-yil. 27-28-betlar
5. Z.Mirzayeva, K.Jalilov. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi.Toshkent: Academ Space 2024.-296 b.
6. <https://ziyo.uz/docs/2622518>
7. <https://e-library.namdu/uz/docs>

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/ASPW2977

ERTAKLARNI O'QITISHDA MULTIMEDIA ILOVALARINING O'RNI

Abdusattorova Dilshodabegim

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti

Annotatsiya. Zamonaviy ta'lim jarayonida multimedia texnologiyalari muhim rol o'ynaydi. Ushbu tadqiqot ertaklarni o'qitishda multimedia ilovalaridan foydalanishning samaradorligini o'rghanadi. Tadqiqot natijalari multimedia elementlarining talabalarning faolligini oshirishi, tushunishni yaxshilashi va interaktiv ta'limni ta'minlashini ko'rsatdi. 100 nafar boshlang'ich sinf o'quvchilari va 10 nafar o'qituvchi ishtirokida o'tkazilgan tadqiqot multimedia ilovalari qo'llanilgan darslarda talabalarning qiziqlishi va bilim darajasi sezilarli darajada oshganligini aniqladi. Bu esa kelajakda ta'lim jarayonida multimedia texnologiyalarining kengroq qo'llanilishi zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: multimedia texnologiyalari, ertaklarni o'qitish, ta'lim jarayoni, interaktiv o'qitish, boshlang'ich sinf o'quvchilari, o'quv faolligi, tushunishni yaxshilash.

Аннотация: Мультимедийные технологии играют важную роль в современном образовательном процессе. В данном исследовании изучается эффективность использования мультимедийных приложений при обучении сказкам. Результаты исследований показали, что элементы мультимедиа повышают вовлеченность учащихся, улучшают понимание и обеспечивают интерактивное обучение. Исследование, в котором приняли участие 100 учеников начальной школы и 10 учителей, показало, что интерес и уровень знаний учащихся значительно возросли на уроках, где использовались мультимедийные приложения. Это подчеркивает необходимость более широкого использования мультимедийных технологий в образовательном процессе в будущем.



NUTQINI BAHOLASH PEDAGOGIK-METODIK MUAMMO SIFATIDA		
<i>Ermatova Durdona Zafarjon qizi. INDUCTIVE AND DEDUCTIVE METHODS IN TEACHING UZBEK AS A FOREIGN LANGUAGE: A COMPARATIVE PEDAGOGICAL ANALYSIS</i>	797	
<i>Raxmatullayeva Ruxshona Sherzod Qizi. O'ZBEK MILLIY TAOMLARI NOMLARINING SHEVALARDAGI UMUMIY VA FARQLI JIHATLARI</i>	800	
<i>Xudayberdiyeva Orifaxon Rustamjon qizi. O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LEKSIKA TUSHUNCHASI</i>	803	
VII SHU'BA. TURKIY XALQLAR ADABIYOTINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR		
<i>P.Hiёзметова. БАДИЙ АСАРДА ТАБИАТ ТАСВИРИ ВА ҚАҲРАМОНЛАР ТУЙҒУЛАРИ ИФОДАЛАНИШИНИ ЎРГАНИШ</i>	809	
<i>P.Hiёзметова. O'ZBEK ADABIY TA'LIMIDA XORIJY METODLARDAN FOYDALANISH METODIKASI</i>	813	
<i>Исманова Акибатхан Алимжановна. АБДУЛЛА ҚОДИРИЙНИНГ "ЎТКАН КУНЛАР" ВА ТЎЛАГАН ҚОСИМБЭКОВНИНГ "СИНГАН ҚИЛИЧ" АСАРЛАРИДА ХОНЛИКЛАР ДАВРИНИНГ БАДИЙ ТАЛҚИНИ</i>	820	
<i>Turakulova Okila Amirkulovna. TA'LIM JARAYONIDA YOSHLARIMIZNING MILLIY O'ZLIGINI ANGLASHIDA BADIY ASARLARNING TUTGAN O'RNI</i>	825	
<i>To'ychiyeva Mahfuza Umakulovna. TA'LIM TIZIMIDA MANTIQIY FIKRLASHDAN FOYDALINISH MASALASI: O'TMISH VA BUGUN</i>	830	
<i>Oymatova Nilufar Mirjamolovna. JADID ADABIYOTINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR DAN FOYDALANISH: MAHMUDXO'JA BEHBUDIY IJODINI O'RGANISH TAJRIBASI</i>	839	
<i>Musurmonkulova Oysuluv Yulbekovna. ADABIY ASARNING BADIY MAZMUNINI ANGLASH YO'LLARI</i>	844	
<i>Elboyeva Mahliyo Polvonquli qizi. MAKTAB TA'LIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAN FOYDALANISH</i>	852	
<i>Abdixoliqova Mastona Raxim qizi. XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARINI O'QITISHNING INNOVATSION VA PSIXOPEDAGOGIK ASOSLARI</i>	857	
<i>Abduraxmanova Ilmira Alimjonovna. O'QITUVCHINING "SEHRLI TAYOQCHASI": FAOLLIKNI OSHIRUVCHI METODLAR T AHLILI</i>	862	
<i>Abdusattorova Dilshodabegim. ERTAKLARNI O'QITISHDA MULTIMEDIA ILOVALARINING O'RNI</i>	865	
<i>Adashaliyeva Nigora Shuhratjonovna. ADABIY TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O'QUVCHILARNING BADIY-ESTETIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH</i>	870	
<i>Beknazarova Farida Matraxim qizi. 5-6-SINF ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH</i>	875	

